

**Izoh:**

1. O'quv rejasiga qo'shimcha kiritiladigan modullar Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining buyrug'i asosida amalga oshiriladi.
2. Mazkur o'quv reja asosida qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi yo'nalishidan kelib chiqib ishchi o'quv reja tuziladi va tayanch oliy ta'lim muassasasining Kengashida tasdiqlanadi. Bunda tayanch oliy ta'lim muassasasiga modullar hajmini 5% gacha hamda haftalik o'quv yuklamasining umumiy miqdorini saqlagan holda modullarning haftalik taqsimotini o'zgartirish huquqi beriladi.
3. Tinglovchilarning kunlik o'quv yuklamasi 6 soatdan kam bo'lmasligi kerak.
4. Mashg'ulotlar muammoli ma'ruza, seminar-trening, davra suhbat, munozara, kichik guruhlarda ishlash hamda boshqa interfaol metodlardan foydalangan holda olib boriladi.
5. Ko'chma mashg'ulotlar oliy ta'lim muassasalari, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha korxon va tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik muassasalarida tashkil etiladi.
6. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil etiladi.
7. Mustaqil malaka oshirishda ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalar pedagog kadrlar tomonidan mustaqil o'zlashtiriladi, o'zini-o'zi kasbiy rivojlantiradi.
8. Tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari hamda Attestatsiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashida ma'qullangan.

2024-yil "24" dekabr" dagi 12 - sonli bayonnomasi.

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i

F.Esanboboyev

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktori

U.Begimkulov

Toshkent davlat agrar universiteti rektori

N.N.Oblomuradov

Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori

N.Akbarov

100

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



“Tasdiqlayman”

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi

2024-yil.

№ 40485-2-IX-2

24.12.2024-yil

**QAYTA TAYYORLASH VA MALAKA OSHIRISH KURSI O'QUV REJASI**

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishi: "O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish"

Tinglovchilar kontingenti: Oliy ta'lim muassasalarining professor - o'qituvchilari

Qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi muddati: maxsus reja grafik asosida (288 soat)

| №           | O'quv modullari   | Umumiy soat | Jami auditoriya soati |           |                    | Mustaqil ta'lim | Haftalar bo'yicha soatlar taqsimoti |           |           |           |
|-------------|---|-------------|-----------------------|-----------|--------------------|-----------------|-------------------------------------|-----------|-----------|-----------|
|             |   |             | nazariy               | amaliy    | ko'chma mashg'ulot |                 | I                                   | II        | III       | IV        |
| <b>I.</b>   | <b>Mustaqil malaka oshirish</b>   |             |                       |           |                    |                 |                                     |           |           |           |
| 1.1.        | Ta'lim darajasi va sifatiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq yangi bilimlar, malaka va ko'nikmalarni pedagog kadrlar tomonidan mustaqil o'zlashtirish, o'zini-o'zi kasbiy rivojlantirish | 144         |                       |           |                    | 144             |                                     |           |           |           |
| <b>II.</b>  | <b>Bevosita malaka oshirish</b>   |             |                       |           |                    |                 |                                     |           |           |           |
| 2.1.        | Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari  | 12          | 12                    | 4         | 8                  |                 | 6                                   | 6         |           |           |
| 2.2.        | Oliy ta'limning normativ huquqiy asoslari hamda tizimda korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish   | 14          | 14                    | 6         | 8                  |                 | 6                                   | 8         |           |           |
| 2.3.        | Pedagogik faoliyatda raqamli kompetensiyalar  | 14          | 14                    | 6         | 8                  |                 | 8                                   | 6         |           |           |
| 2.4.        | Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish  | 16          | 16                    | 6         | 10                 |                 | 6                                   | 6         | 4         |           |
| 2.5.        | Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish  | 16          | 16                    | 8         | 8                  |                 |                                     |           | 10        | 6         |
| 2.6.        | Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari  | 14          | 14                    | 6         | 8                  |                 |                                     |           | 8         | 6         |
| 2.7.        | O'rmonchilikning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari  | 26          | 26                    | 10        | 10                 | 6               | 6                                   | 6         | 8         | 6         |
| 2.8.        | Ko'kalamzorlashtirishning dolzarb muammolari va zamonaviy yutuqlari   | 20          | 20                    | 6         | 8                  | 6               | 4                                   | 4         | 6         | 6         |
| <b>III.</b> | <b>Malakaviy attestatsiya</b>   | <b>12</b>   |                       |           |                    | <b>12</b>       |                                     |           |           | <b>12</b> |
|             | <b>Jami</b>   | <b>288</b>  | <b>132</b>            | <b>52</b> | <b>68</b>          | <b>12</b>       | <b>156</b>                          | <b>36</b> | <b>36</b> | <b>36</b> |